

O'ZBEKISTONDA RUS TILINING TALIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Hamidova Mahbuba Qahhorovna

Farg'ona Davlat Univerisiteti o'qtuvchisi

Turg'unboyev Muhammadvali Sherzodjon o'g'li

Harbiy talim fakulteti 1-kurs kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rus tilini yurtimizdagi o'рни haqida, Rustili dunyodagi yetakchi tillardan biri ekanligi haqida, Til odamlar bir-biri bilan aloqa qilishning eng muhim vositasi ekanligi haqida, Rus tili -rus xalqining milliy tili ekanligi haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar: *til, rus tili, xorijiy tillar, millat, rivojlantirish*

KIRISH

Rus tili(ruscha:Русскийязык) —rus xalqi tili, jahonda keng tarqalgan tillardan. Avval SSSRda, so'ng Rossiya Federatsiyasi va MDHda millatlararo va davlatlararo aloqa vositasi. Rus tili Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi 6-rasmiy tildan biri sanaladi. Ukrain va belorus tillari bilan birgalikda hindevropa tillari oilasiga kiruvchi slavyan tillarining sharqiy guruhini tashkil etadi. Rus tili juda uzoq va murakkab rivojlanish tarixiga ega. Eng qadimgi rus adabiy tili Kiyev Rusida shakllangan bo'lib, u XIV asrgacha sharqiy slavyanlar uchun umumiy til hisoblangan. XIV-XV asrlarda qadimgi rus tili 3 tilga — velikorus (rus), ukrain va belorus tillariga bo'linib ketadi. Shu davrdan boshlab rus tili, boshqacha aytganda, velikorus tili markazi Moskva bo'lgan Rus davlati hududida rivojlana boshlaydi. Jamiyatimiz hayotidagi tub o'zgarishlar uning hayotining barcha jabhalariga, jumladan, xalq ta'limiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, barcha o'quv fanlarini, birinchi navbatda, rus tili va adabiyotini o'qitish jarayoni sezilarli o'zgarishlarga uchragan turli mintaqalarning milliy maktablarida sodir bo'lgan o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega edi. Aksariyat respublikalarda shakllangan til vaziyati, ona tilini o'qitishga yetarlicha e'tibor bermaslik rus tili va adabiyotini o'rganishga ajratiladigan soatlarning sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Shu munosabat bilan rus tili va adabiyoti fanlaridan ushbu fanlarni o'zaro bog'liq holda o'rganish tamoyillari asosida yangi dasturlarni ishlab chiqish masalalari kun tartibida dolzarb bo'lib qoldi

ASOSIY QISM

Xorijiy Tillarni O'rganishni Ommalashtirishni Samarali Tashkil Etish Chora-Tadbirlari To'G'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek,

xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorining:

1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) hamda Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilganligi;

2-bandiga muvofiq Agentlik va uning vakillari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazining 34 ta shtat birligi, Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq Agentlik:

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

xorijiy va mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o'rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko'magini mamlakatda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga jalb qilishni tashkil etadi;

vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatini xorijiy tillarda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi uslubiyotlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etadi;

talab yuqori bo'lgan kamida o'nta xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilaydi;

xorijiy tillar o'qituvchilari uchun malaka talablari va baholash mezonlarini ishlab chiqadi hamda ularga malaka toifasini berish jarayonini ochiqlik tamoyili asosida tashkil etadi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro'yxatini hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarning darajalari o'rtasidagi muvofiqlikni tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Vazirliklar va idoralar xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro'yxati hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar darajalari o'rtasidagi muvofiqlik jadvali asosida tizimlaridagi xodimlarga ustamalar belgilash uchun har yili o'zlariga taalluqli bo'lgan sertifikatlar ro'yxatlarini tasdiqlaydi.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) faoliyatini tugatish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilansinki:

Agentlik Markazning butun uzluksiz ta'lim tizimi uchun chet tillari bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq davlat ta'lim standartlari, o'quv rejaları va dasturlarini, o'quv hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va doimiy tarzda takomillashtirish bo'yicha shartnomalari, huquqlari va majburiyatlari hamda xo'jalik shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

Markazning 4 ta shtat birligi negizida Xorijiy mamlakatlarning chet tillarini o'qitish sohasidagi nufuzli malaka oshirish markazlari bilan hamkorlikda ikki tomonlama sertifikatlash tizimi bo'yicha tarmoq malaka oshirish tuzilmasi tashkil etiladi;

Agentlik hududiy vakilliklari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi hamda ularning faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

4. Quyidagilar Agentlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

2021-yilda Davlat budjetidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga o'qituvchilar malakasini oshirish uchun ajratilishi nazarda tutilgan mablag'lar;

Davlat budjeti mablag'lari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag'lari, grantlar; jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

5. Agentlik huzurida ta'lim tashkilotlarining xorijiy tillar pedagoglarining malakasini oshirish bo'yicha mobil guruhlar (keyingi o'rinlarda — mobil guruhlar) tashkil etilsin. Bunda, quyidagilar nazarda tutiladi:

mobil guruhlar eng avvalo, olis hududlarda joylashgan yoki xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ko'rsatkichi past bo'lgan ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarining malakasini oshirishga jalb etilishi;

mobil guruhlar respublikada faoliyat yuritayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlari va xorijiy hamkorlar vakillaridan iborat tarkibda shakllantirilishi va ularning faoliyati Agentlik, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari, grantlar va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi;

mobil guruhlar tomonidan "kaskad" tamoyili asosida hududlarda tajribali xorijiy tillar o'qituvchilari orasidan xorijiy tillarni o'qitish va ommalashtirish bo'yicha trenerlar (coach)ni

tayyorlab, ularning hududdagi chet tillari o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha faoliyatini tashkil etishga uslubiy va tashkiliy yordam ko'rsatiladi.

Agentlik O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab mobil guruhlar faoliyatini yo'lga qo'ysin.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mobil guruhlariga ta'lim jarayonini joylarda tashkil etishi uchun Agentlik bilan kelishilgan holda avtotransport vositalari (mikroavtobus)ni doimiy asosda biriktirib, ularni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar qoplanishini ta'minlasin.

6. Quyidagilar:

Negizida xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etiladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda ularga biriktirilayotgan oliy ta'lim muassasalari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

2021-yilda xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni texnik vositalar bilan jihozlash dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda:

mazkur qarorning 2-ilovasida ko'rsatilgan maktablarni texnik vositalar bilan jihozlash mahalliy budjet va uning qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilsin;

xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirilgan oliy ta'lim muassasalariga xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi etib belgilansin va ularda Agentlikning hududiy vakilliklari joylashtirilsin.

7. Quyidagilar xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan oliy ta'lim muassasalarining xorijiy tillar kafedralarini biriktirish orqali o'quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o'rganishini tashkil etish;

o'quvchilarni xorijiy tillarga o'qitish va ularning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish, shu jumladan ta'lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta'lim shakllarini keng qo'llash hamda boshqa fanlarni xorijiy tillarda o'qitish;

o'quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishi orqali ularning dunyoqarashi kengayishi, salohiyati oshishi hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlash.

8. Quyidagilar xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirilgan oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

o'quv jarayonini metodik qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini mustahkamlash va qo'llashda ko'maklashish, shu jumladan ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

ta'lim jarayoniga malakali professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalarni jalb qilish choralarini ko'rish hamda ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil qilish;

xorijiy tillarga o'qitish kurslari va to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida ko'rik-tanlovlar va olimpiadalar tashkil etish.

Ixtisoslashtirilgan maktablarga birlashtiriladigan oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarda xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirishga oid xarajatlari ushbu tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplansin.

9. Davlat ta'lim muassasalari xorijiy tillar o'qituvchilari uchun xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasi bo'yicha quyidagi talablar belgilansin:

2022/2023 o'quv yilidan boshlab, davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillar o'qituvchilari lavozimlariga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim;

2022/2023 o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim;

2024/2025 o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (xorijiy tildan tashqari) o'qituvchilarining 50 foizi kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim;

2024/2025 o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Agentlik bilan birgalikda bir oy muddatda ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari tegishli sertifikatni olish uchun tayyorlanishini tashkil etsin.

10. Quyidagilar:

Xorijiy tillarni o'qitish sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq;

Ta'lim tizimida xorijiy tillarga o'qitish tizimini takomillashtirishga oid maqsadli ko'rsatkichlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlari kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar hamda xorijiy tillarga o'qitish tizimini takomillashtirishga oid maqsadli ko'rsatkichlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.

11. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) xorijiy tillar bo'yicha o'tkaziladigan respublika olimpiadalarida ishtirokchilarning 4 ta ko'nikmasini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) baholash tartibi joriy etiladi.

Xalq ta'limi vazirligi Agentlik bilan birgalikda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab xorijiy tillar bo'yicha olimpiadalarning respublika bosqichini takomillashtirilgan tartib asosida

o'tkazilishini hamda hakamlar hay'atiga faoliyat yuritayotgan xususiy va xorijiy, shu jumladan xorijiy tillar bo'yicha imtihon o'tkazadigan xalqaro tashkilotlarning mutaxassislari jalb qilinishini ta'minlasin;

b) 2022/2023 o'quv yilidan boshlab, tanlangan umumta'lim maktablari 4-sinf bitiruvchilari, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab esa 9-sinf bitiruvchilarining xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlash bo'yicha maxsus sinov o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Xalq ta'limi vazirligi Agentlik va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda o'tkaziladigan maxsus sinov natijalari asosida xorijiy tillarni o'qitish uslubiyotini takomillashtirish choralarini ko'rib borsin.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o'z hududlarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish maqsadida:

har yili tuman (shahar)dagi maktablarni xorijiy tillarni o'qitish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar, asbob-uskunalar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga mahalliy budjetdan 1 mlrd so'mdan kam bo'lmagan miqdorda mablag'lar ajratib borsin;

Agentlik va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda umumta'lim muassasalariga til egasi bo'lgan malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish ishlarini yo'lga qo'yib, ularning jalb etilishi, shu jumladan joylashtirilishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirib borsin;

Agentlik bilan birgalikda har bir tuman (shahar)da ochiq tanlov o'tkazib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan kamida ikki nafar ingliz tili o'qituvchilari va bir nafar boshqa xorijiy til o'qituvchisining xorijiy davlatlarga qisqa muddatli malakasini oshirishga yuborish tizimini yo'lga qo'ysin.

13. Xorijiy tillarni o'qitishni raqamlashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida:

a) hududlardagi IT-markazlarda yoshlarni xorijiy tillarga onlayn o'rgatish kurslari yo'lga qo'yilsin hamda mazkur xarajatlarining bir qismi qonunchilikda belgilangan tartibda Yoshlar jamg'armasi hisobidan qoplab berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ikki oy muddatda IT-markazlarda xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda onlayn o'quv kurslarini tashkillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin;

b) ta'lim berish jarayonini o'qitishning masofaviy (onlayn) texnologiyalari asosida tashkil etuvchi ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash tartib-taomillari quyidagilarni nazarda tutgan holda soddalashtirilsin:

ta'lim tashkilotining o'quv vositalariga oid shartlarini qayta ko'rib chiqib, o'qitishning masofaviy (onlayn) texnologiyalariga oid alohida talablarni belgilash;

ta'lim berish jarayonini tan olingan xorijiy va xalqaro standartlar asosida tashkil etish uchun huquqiy asoslarni shakllantirish;

ta'lim berish jarayonini avtomatlashtirilgan dastur va videokurslar orqali masofaviy (onlayn) tarzda olib borish imkonini inobatga olish;

ta'lim berish jarayoniga ayrim sohalar, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida pedagog kadrlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ega shaxslarni ham jalb etish imkonini yaratish.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Adliya vazirligi ikki oy muddatda ta'lim berish jarayonini o'qitishning masofaviy (onlayn) texnologiyalari asosida tashkil etuvchi ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash tartib-taomillarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha qaror loyihisini kiritsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan davlat boshqaruvi organlari 2021-yil yakuniga qadar oliy ta'lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklik asosida o'qituvchi va talabalarga xorijiy tillarni o'qitish markazlari (kurslari)ni tashkil etish choralari ko'rsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

bir oy muddatda umumta'lim maktablarning xatlovdan o'tkazilishi va ularning bo'sh joylari, shu jumladan o'quv xonalari, ishlab chiqarish ustaxonalari, bino va inshootlarining xorijiy tillarni o'qitish va boshqa ta'lim faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli asosda ijaraga berilishini ta'minlasin;

ikki oy muddatda Davlat budjeti parametrlarida unga ajratilgan mablag'lar hisobidan 2022/2023 o'quv yilidan boshlab, xorijiy tillar fanlari bo'yicha darsliklarni ulardagi mashqlarni eshitib bajarish imkonini beradigan interaktiv havola va kodlar bilan boyitish hamda eshitish uchun mo'ljallangan vazifalarni barcha tanishishi mumkin bo'lgan axborot resurslarida joylashtirish choralari ko'rsin.

16. Agentlik Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9a, 21-uy manzilidagi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining binosiga nol stavka bo'yicha ijara to'lovi asosida bilan joylashtirilsin.

17. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Milliy axborot agentligi va Agentlik bilan birgalikda:

uch oy muddatda 24 soat davomida xorijiy tillarda efirga uzatiladigan tele va radio kanallarini ishga tushirsin va bunda har kuni kamida 3 soatlik dasturni xorijiy tillarni onlayn o'rgatishga ajratib borsin;

xalqaro tashkilotlar bilan birga xorijiy tillarda yoshlarga mo'ljallangan va ular ishtirokida tayyorlangan turli ilmiy-ommabop hamda ko'ngilochar ko'rsatuvlar efir vaqtini oshirsin hamda muntazam ravishda tegishli teleradiokanallar orqali efirga uzatib borsin;

bolalar uchun mo'ljallangan xorijiy tildagi televizion asarlarni dublyajsiz, asl tilida, zarur hollarda o'zbek, ingliz va rus tillariga titrli tarjima qilgan holda efirga uzatishni yo'lga qo'ysin;

mazkur qaror mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid maqolalar, brifinglar, tematik teleko'rsatuvlar tashkil etsin.

18. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

Hozirgi vaqtda rus tilini o'qitish usullarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari kommunikativ yo'nalish tamoyilini, innovatsion texnologiyalarni va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etishdir. Ta'lim jarayonini insonparvarlik ruhida olib boorish va bu jarayon sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni demokratlashtirishning ahamiyati alohida e'tiborga loyiqdir. Rus tilini o'qitishning kommunikativ metodologiyasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ham matnsentrizmdir. Maktab o'quvchilarida nafaqat matni idrok etish va matn bilan ishlash ko'nikmalarini, balki matni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan til o'qitish dasturlari kiritila boshlandi. Rus tilini o'qitish sohasidagi innovatsiyalar nafaqat maqsadlar, mazmun, usullar va texnologiyalar, tashkil etish va boshqarish tizimi shakllari, balki pedagogik faoliyat uslublari va

ta'lim jarayonni tashkil etishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Binobarin, o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning maqbul yo'llarini belgilash, istiqbolli g'oya va ishlanmalarni maqsadli joriy etish zamonaviy metodologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Rus tilini o'qitish jarayonini tashkil etishda yuqoridagi qoidalarni hisobga olish ham odamlarning ehtiyojlari, ham jamiyatning ijtimoiy tartibi bilan bog'liq. Ushbu muammolarni hal qilishning muvaffaqiyati optimallashtirishga olib kelishi mumkin. Hozirgi bosqichda ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni muhim o'rinlardan birini egallaydi. Axborot texnologiyalari (IT, shuningdek - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) - jarayonlar, ma'lumotlarni qidirish, to'plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, tarqatish usullari va bunday jarayonlar va usullarni amalga oshirish usullaridir. Axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'rta va oliy o'quv yurtlarida, balki boshlang'ich maktablarda ham o'quv jarayoniga yangicha yondashuvlar bilan bog'liq. Shubhasiz, buning ko'plab afzalliklari bor, chunki bugungi kunda bolalar uchun u yoki bu gadjetni o'zlashtirish qiyin emas. Ularning malakasini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida esa, axborot texnologiyalari boshlang'ich bolalar uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqmoqda. Har xil turdagi o'quv kompyuter dasturlari yordamida interfaol ta'lim, bu o'z navbatida uslubiy va pedagogik, didaktik, psixologik tamoyillarning butun majmuasini amalga oshirishga yordam beradi, o'quv jarayonini yanada qiziqarli, qizg'in va samarali qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim faoliyati deganda faqat ta'lim muassasasiga tashrif buyurish yoki yangi bilimlarni o'zlashtirish deb tushunmaslik kerak, chunki bilimni o'yin, dam olish yoki ishlash jarayonida ham olish mumkin. Shunday qilib, boshlang'ich bosqichda tinglash qobiliyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri bu rus tilining tajribali o'qituvchisi tomonidan olib borililishidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining darsdagi nutqi doimo bir xil bo'lmasligi mumkin. O'qituvchi darsni rus tilida olib boradi, lekin u deyarli har bir iborani tarjima bilan birga olib boradi. Bunday usulda dars o'tish o'quvchilarda tinglash ko'nikma va malakalarini shakllantira olmaydi. Bolalar, o'qituvchi aytilganlarni tarjima qilishini bilib, rus tilida nutqni

tushunish uchun hech qanday harakat qilmaydi. Aslida, bu holda muloqot ona tilida amalga oshiriladi.

Chet tillarini o'qitish jarayonida videomateriallardan foydalanish o'quv jarayonini faollashtirishga yordam beradi va maktab o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Video bizga haqiqiy nutqni tinglash va ma'ruzachi va uning atrofini vizual tarzda idrok etish imkonini beradi. Bu bizni haqiqiy tinglash sharoitlariga yaqinlashtiradi. Videoga asoslangan tinglash jarayoni motivatsiyaning sezilarli o'sishi, vaziyatdan xabardorlik va muloqotning yuqori darajasi, yuqori darajadagi ravshanlik va natijada ma'lumotli tarkib va tushunish osonligi bilan tavsiflanadi. Audiovizual o'qitish usuli samarali bo'lishi uchun o'qituvchi haqiqiy video materiallarni tanlash mezonlariga to'g'ri yondashishi kerak. Videoda o'quv maqsadlariga muvofiq tanlangan, mavzuli qiziqarli bo'lgan, talabalarning yosh xususiyatlariga, shuningdek, amaliy tilni bilish darajasiga mos keladigan zarur lingvistik material bo'lishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda : bugungi kunda insonni maqsadli tilda muloqot qilishga tayyorlash madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlik ko'rish bilan tengdir. Shunga ko'ra, rus tilini o'qitish amaliyoti ushbu holatga tezda javob berishi va paydo bo'lgan muammolarni optimal hal qilish yo'llarini ishlab chiqishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Rus tili madaniyati. (Darslik) Maslov V.G., 2010
2. Rus tili va nutq madaniyati: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. L.A. Vvedenskaya, L.G. Pavlova, E.Yu. Kashaeva, Rostov n / a: "Feniks" nashriyoti, 2001.
3. Rus tili va nutq madaniyati / I. A. Dolbina, T. A. Karpinets, O.A. Saltakova; Kuzbas davlat texnika universiteti, 2011
4. XX asr oxiridagi rus tili. V.L. Vorontsova va boshqalar -M.: Rus madaniyatining tillari, 2009.
5. Zamonaviy rus tili. Darslik. Valgina N.S., Rosenthal D.E., Fomina M.I., 2002.nashr.